

«Mexanika muammolari» jurnali



«**Mexanika muammolari**» O‘zbekiston jurnalining ta‘sis etuvchisi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hisoblanadi. Jurnal 1992 yildan beri chop etiladi, 2006 yil O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligidan qayta ro‘yhatdan o‘tkazilgan (sertifikat №0050, ISSN 2010-7250).

Jurnalda umumiy mexanika, deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi, suyuqliklar, plazmalar va gazlar mexanikasi, gruntlar mexanikasi va mexanikaning turli soxalarda (qurilish, suv muammolari, engil sanoat mexanikasi, qishloq ho‘jaligi mashinalari, avtotransport, temir yo‘l soxalarida) qo‘llanilishi, sanoat korxonalarining mexanika bo‘yicha maqolalari an‘anaviy nashr etiladi.

Nashr tili. O‘zbek, Rus va Ingliz tillari.

Jurnalning maqsadi - ilm-fan rivojiga yordam berish uchun, mexanika va uning tatbiqi sohasidagi yangiliklarni, tadqiqotlar natijalarini, yutuqlarini va yangi g‘oyalarini ilmiy xodimlarga, mutaxassislar, magistrlar, doktorantlar, fan va texnika soxasida o‘zaro bog‘langan mutaxassislarga etkazishdan iboratdir.

Asosiy vazifasi:

- Mexanika va uning tatbiqi soxasidagi yurtimiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot, ilmiy-amaliy va eksperimental faoliyati natijalarini aks ettirish;
- Oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilar, ITI va ishlab chiqarish hodimlarini tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- Ilmiy tashkiliy muhit tashkil etish va O‘zbekiston fani asosiy yutuqlarini targ‘ib etish;
- Fanda dunyoning yaqin va uzoq xorijiy davlatlari hamkasblari orasida mavaffaqiyatlar va tajribalar almashish;
- Yuqori darajadagi mutaxassis hisoblanuvchi, obro‘ qozongan mualliflarni jurnalda maqola chop etishga jalb qilish;
- Rossiya va horijiy mashhur mutaxassislarni jalb qilib taxririya va retsenzentlar guruxini kengaytirish;
- Halqaro ma‘lumotlar bazasiga qo‘shish;
- O‘zbekistonda va xorijda jurnalning hammabop va ochiqligi oshirish.

Ixtisosligi. Jurnalda mexanika va uning tatbiqi soxasidagi maqolalar nashr etiladi.

Jurnalning o'ziga xosligi. Jurnal umumiy mexanika, deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi, suyuqliklar, plazmalar va gazlar mexanikasi, gruntlar mexanikasi va mexanikaning turli soxalarda (qurilish, suv muammolari, engil sanoat mexanikasi, qishloq ho'jaligi mashinalari, avtotransport, temir yo'l soxalarida) qo'llanilishidagi hamma asosiy yo'nalish tadqiqotlarini qamrab oladi. Texnogen va tabiiy xarakterdagi favqulodda holatlarda xavfni kamaytirish, baholash bo'yicha tavsiyanomalar (suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa.). Maxsus sonlarida jurnalning tematikasi bo'yicha alohida ilmiy-texnik muammolarga bag'ishlangan, jumladan halqaro konferensiya, simpozium va seminarlar materiallari chop etiladi. Alohida rubrika ostida yosh olimlarning maqolalari, ilmiy axborotlar, mexanika yangiliklari (xronika) chop etiladi. Jurnal texnika va fizika-matematika fanlari bo'yicha ilmiy daraja olish uchun tadqiqotchilarning maqolalari chop etiladigan mexanika sohasidagi O'zbekistonning asosiy ilmiy nashri hisoblanadi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasining barcha regionlari bo'yicha tarqatiladi.

Mablag' bilan ta'minlaganligi – jurnal o'z o'zini qoplash hisobiga ishlaydi.

Bosh muharrir



Sultanov Karim Sultanovich

Tug'ulgan yili:

Tug'ulgan joyi: Toshkent shahri,

Yo'nalishi: Mexanika,

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Manzil: 100125, O'zbekiston, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40

Telefon: (+998-71) 262-71-32

Faks: (+998-71) 262-71-32

E-mail: instmechofficial@gmail.com

Sayt: www.pmjournal.uz

Maqolalarni qabul qilish qoidalari